# CHO'LPON LIRIKASIDA PSIXOANALITIKANING BADIIY CHIZGILARI

*Qarshi shahar "INNOVA EDU-ON" NTM i ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*
**Abdimo'minova Dilnoza Baxriddinovna**

**Annotatsiya:** Maqolada Cho'lpon lirik asarlarida psixoanalitik tafakkurning badiiy ifodasi tahlil qilinadi. Shoir she'riyatida inson ruhiyatining ongsiz qatlamlari, ichki kechinmalar va ramziy holatlar poetik shaklda yoritilgan. Tadqiqotda "Binafsha", "Xalq", "Ko'ngil" she'rlari misolida Cho'lpon lirikasidagi psixoanalitikaning badiiy chizgilari tahlil qilinadi. Asarlardagi ramz, ichki ziddiyat va ruhiy bosim holatlari Freyd psixoanalizining ayrim tamoyillari bilan uyg'un holda talqin etilgan.

**Kalit so'zlar:** Cho'lpon, "Binafsha", "Xalq", "Ko'ngil", psixoanalitika, psixologizm.

XX asr boshlarida O'rta Osiyoda yuzaga kelgan jadidchilik harakati xalq ongini uyg'otish, ma'rifat tarqatish va millatni erkinlikka yetaklashni maqsad qilgan ijtimoiy-madaniy oqim edi. Jadid ziyolilari — Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Cho'lpon va boshqalar — o'z asarlari orqali xalqni ilmga, adolatga va erkin fikrlashga chorladilar.
Jadidlar nazarida adabiyot xalqni uyg'otuvchi, ruhiy o'sishga undovchi qudratli kuch edi.

Cho'lpon ana shu harakatning eng yorqin vakillaridan biri sifatida o'z she'rlari orqali inson qalbining ozodlikka chanqoqligini, millatning uyg'onish istagini ifodaladi.Cho'lpon ijodi o'zbek adabiyotida xalq ruhining uyg'onish davrini ifodalovchi muhim bosqichlardan biridir. Uning she'rlari inson qalbining ichki kechinmalarini, ozodlik, erkinlik, muhabbat va insoniylik haqidagi o'ylarini aks ettiradi. Shoir o'z dardini xalq dardi bilan birlashtirib, har bir satrini yurakdan yozgan. Shu bois uning lirikasi nafaqat shaxsiy kechinma, balki millat qalbining umumiy ifodasiga aylangan. Cho'lpon she'rlari nafaqat ijod ahlini, balki oddiy kitobxonlarnga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Munavvarqori Abdurashidxonov rahbarligidagi harakat a'zolari qamoqqa olinganda xufyalardan biri kamerada bo'lib o'tgan bir suhbat haqida aytib bergan. Andijonlik mahbuslardan biri o'zi tushgan fojiali ahvolning sababchisi Cho'lpon ekanini aytib, "Agar shu Cho'lpon va uning she'rlari bo'lmaganida men bu sassiq kamerada yotmagan bo'lardim," degan va Cho'lponni yaratgan Parvardigordan ranjigan. Ammo xiyla vaqt o'tgach, u

o’ziga kelib “Yaxshi ham Cho’lpon va uning she’rlari bor. Ularsiz bizning ko’zimiz ochilmagan bo’lardi, ” – deb aytgan.

“Binafsha” she’rida Cho‘lpon nozik, ammo chuqur ramzlar orqali insonning ezilgan, ammo go‘zalligini saqlab qolgan ruhini tasvirlaydi. Shoir “binafsha” obraziga insonning dardli, ammo umidli holatini singdiradi.

Binafsha,yig‘lama,binafsha,kelberi
Qayg‘ungni qayg‘umga qo‘shgil.
Binafsha, sen uchun ko‘kragim erk yeri,
Bu yerdan ko‘klarga uchgil.
Binafsha, go‘zalim, qayg‘ulim, kelmaysan,
Qayg‘ung zo‘r, qayg‘umni bilmaysan,
Menga bir kulmaysan.

“Binafsha” she’ri inson ruhiyatining murakkabligini, qayg’u va ozodlikni birlashtirgan lirikadir. Binafsha ramzi orqali muallif o’z ichki dunyosini ochib beradi, his-tuyg’ularini ifodalaydi. “Binafsha, sen uchun ko’kragim erk yeri, Bu yerdan ko’klarga uchgil” tarzida ifodalangan misralar bor. Unda “Vatan“ tushunchasi “ko’kragim” so’zi bilan ,” ozod yurt” tushunchasi “erk yeri” so’zlari bilan ifoda etilgan .

Binafsha, senmisan, binafsha, senmi?
Ko’chada aqchaga sotilgan.

Ushbu misralarda binafsha obrazi erki o’z qo’lida bo’lmagan, or-nomusi toptalgan qizlar ramzi bo’lib kelayotganini ko’rishimiz mumkin:

Binafsha, nimaga bir ozroq ochilmay,
Bir erkin kulmasdan uzilding?
Binafsha, nimaga hidlaring sochilmay,
Yerlarga egilding, cho‘zilding?

Bu to‘rtlikda Cho‘lpon binafsha gulini oddiy tabiat timsoli sifatida emas, inson ruhiyatining, ayniqsa, ayollik kechinmalarining ramzi sifatida ishlatgan. “Binafsha” — bu yerda ham erkinligi bo‘g‘ilgan, jamiyat yoki ijtimoiy an’ana tufayli or-nomus doirasiga qamalgan ayol timsolidir. “Ochilmading”, “kulmading” — ayolning tabiiy go‘zalligi, tabiiy hissiyotlari, ichki ozodligi tazyiq ostida qolganini bildiradi. Bu — repressiya (Freydcha ma’noda: bosilgan istak) ifodasidir. “Yerlarga egilding, cho‘zilding” — ruhiy sindirish, bo‘ysundirish, ijtimoiy bosim natijasida ayolning bukilishi, ichki dunyosining ezilishini ifodalab kelyapti. Freyd nazariyasi bo‘yicha, inson ongida istak (libido) va taqiqlar (superego) o‘rtasida kurash bor. She’rda binafsha ya’ni ayol ong ostida erkinlik, sevgi, kulgi, hayotiylikka intiladi, ammo jamiyat, ijtimoiy-siyasiy vaziyat bu istakni bosadi.

Uning ochilolmasligi — bu ayollik istaklarining bosilishi (repressiya);
kulolmasligi — baxtni his qilolmaslik (ichki depressiya);

egilishi esa — ruhiy tazyiqqa bo‘ysunishdir (taslim bo”lish);

Cho‘lpon shu tariqa bu ramzlar orqali ayolning psixologik holatini ijtimoiy kontekstda ochib beradi — bu o‘z davri uchun juda jasoratli badiiy bayon edi.

“Ko‘ngil” she’rida esa Cho‘lpon inson ruhining sustligi, kishanlangan hayotga bo‘lgan noroziligini ifoda etadi. Shoir insonni uyg‘onishga, o‘z kuchini anglashga chorlaydi.

“Ko‘ngil, sen munchalar nega
Kishanlar birla do‘stlashding?” Na faryoding, na doding bor,
Nechun sen muncha sustlashding?

Bu satrlarda xalqning holati, uning ozodlikdan uzoqlashgan ruhiy holati ifodalanadi. Shoir kishanlarni faqat jismiy emas, balki ma’naviy to‘siqlar sifatida tasvirlaydi. U insonni bu kishanlardan xalos bo‘lishga, o‘zligini tanishga undaydi. Cho‘lpon uchun “ko‘ngil” bu shunchaki his emas, balki uyg‘onish, ozodlikka intilish timsolidir. She’r ohangida kuchli hayotga ishonch, ozodlik orzusi seziladi.

“Xalq” she’riga to’xtaladigan bo’lsak, Cho‘lpon ijodining eng jo‘shqin, milliy-ozodlik harakatiga undovchi, erkinlikka chaqiriq tarzida yozilgan asarlaridan biridir. Bu she’rda shoir xalqni uyg‘onishga, o‘z kuchiga ishonishga da’vat etadi. Shoir bu she’ri bilan xalqqa ruhiy-psixologik ta’sir o’tkazishga urinadi

“Xalq dengizdir, xalq to‘lqindir, xalq kuchdir,
Xalq isyondir, xalq olovdir, xalq o‘chdir...”

Bu misralarda xalqning qudrati, ichki kuchi har qanday to’siqni, muammoni, qarama-qarshilikni yenga olishi, bunga erishish uchun esa faqatgina birlashish, hamjihatlikda harakat qilish kerakligi uqtiriladi. Cho‘lpon xalqni hayotning bosh kuchi deb biladi. U xalqni qo‘zg‘alishga, o‘z yurtining taqdirini o‘zgartirishga chaqiradi.

Shoir “xalq” so‘zini ko‘tarinki ohangda, ishonch va faxr bilan aytadi. U xalqni nafaqat tarixiy kuch, balki ruhiy uyg‘onish manbai sifatida ko‘radi.

Cho‘lpon she’riyati inson qalbining eng nozik tomonlarini ochadi. Uning har bir she’rida ichki iztirob, hayotga ishonch va ozodlik istagi uyg‘unlashadi. Shoir o‘z “men”i orqali butun xalqning “biz” degan birligi tomon yuradi.

Cho‘lpon lirik qahramoni og‘riqli, ammo umidvor. U zulmat ichida ham nur qidiradi, qayg‘uda ham ishonch topadi. Shu bois uning she’rlari insonni o‘ylashga, his qilishga, yashashga undaydi.

Cho‘lpon lirikasi – xalq qalbining sadosi, ozodlik orzularining ifodasi. Uning she’rlarida insonning og‘rigi ham, orzusi ham mujassam. “Binafsha”da ezilgan, ammo so‘nmagan go‘zallik; “Ko‘ngil”da kishanlarni sindiruvchi uyg‘onish; “Xalq”da esa qudratli ozodlik ruhi namoyon bo‘ladi.

Shoirning so‘zi dard bilan yo‘g‘rilgan, ammo umid bilan tugaydi. U insonni o‘zligiga qaytishga, xalqini sevishga, hayotga ishonishga chorlaydi. Cho‘lpon she’riyati shu bois bugun ham o‘z kuchini yo‘qotmagan – u yuraklarni uyg‘otishda davom etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Cho’lpon “Tong sirlari” O’zdavnashr 1926
2. Naim Karimov Cho’lpon va XX asr o’zbek she’riyati Toshkent 1997
3. Naim Karimov “Cho’lpon” Sharq nashriyoti Toshkent 2003
4. D, Quronov “Cho’lpon. Hayoti va ijodiy faoliyati” Toshkent “O’qituvchi” 1997